



2020 yil avgust oyi holatiga ko'ra

Ish izlash maqsadida viza olishga kerakli hujjatlar haqida eslatma

Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarini **shaxsan** topshirishlari shart. **Hujjat topshirish uchun qabulga yozilish faqat internetda, elchixonaning qabulga ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi**
- Viza arizasi qaror qabul qilish maqsadida **Germaniyadagi xorijliklar masalalari boy'icha mas'ul idora (Ausländerbehörde)** ga yuboriladi. Shu sababdan yashash ko'zda tutilayotgan **manzil** (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) ariza blankida **to'liq** ko'rsatilishi lozim
- Bu viza **Uchinchi davlatlardan bo'lgan**, oliy ma'lumotga ega **mutaxassislarga** uzog'i bilan olti oyga Germaniyaga kelib, shu yerning o'zida mutaxassisligiga mos ish topish imkonini beradi
- Mutaxassislar emigratsiyasi haqida umumiy ma'lumotlarni www.make-it-in-germany.com portalidan olishingiz mumkin
- Arizangiz borasida ijobiy qaror qabul qilinsa, elchixona xodimlari Siz bilan bog'lanadi. Rad javoblari faqat yozma ravishda yuboriladi yoki arizachi tomonidan shaxsan olib ketilishi mumkin.
- Tajribaga muvofiq viza arizasini **ko'rib chiqish muddati 1 – 2 haftani** tashkil etadi va ba'zi xollarda muddat farqlanishi mumkin
- **Viza badali 75 yevroni** tashkil etadi va to'lov ariza topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** (amaldagi kurs bo'yicha) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart



Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalarini biriktirmagan xolda ikkita to'liq** to'plamga ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat. (2ta fotosurat ariza blankiga yelimlangan bo'lishi kerak).** Blankni elchixonaning internetdagi www.taschkent.diplo.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **imzolangan izoh**
- kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan pasportingiz** va uning shaxsiy ma'lumotlar kiritilgan sahifasidan nusxa
- Germaniya Federativ Respublikasida bo'lish vaqtida doimiy amal qiladigan tibbiy sug'urta polisi. (ariza bo'yicha qarorni olishdan oldin taqdim etiladi).**
- Kasbiy faoliyat aks ettirilgan **tarjimai hol**, kasbiy ma'lumot haqidagi hujjatlar (tavsiyanomalar, diplomlar, mehnat daftarchasi va boshqalar) va ularning nemis tiliga notarial tasdiqlangan tarjimasini.
- Oliy ma'lumot haqida Germaniya oliy o'quv yurti diplomi yoki Germaniyada tan olingan xorijiy diplom** (Sizning xorijiy diplomingiz Germaniyaning qaysi diplomiga mos kelishini www.anabin.de web-sahifasidan bilib olishingiz mumkin)
- rejalashtirilgan ish qidirish maqsadidagi safarni **asoslovchi xat** (tarmoq, hudud, rejalashtirilgan istiqomat qilish/yashash joyi va hokazolar haqida)
- yashash xarajatlarini qoplash uchun** oyiga 939 yevro miqdorida, **yetarlicha mablag' mavjudligi haqida tasdiqнома:**
 - berilganiga olti oy bo'lmagan, safar maqsadi "ish qidirish" deb ko'rsatilgan, Germaniyada bo'lish haqidagi qonunning 66 - 66 moddalariga muvofiq kafolat xati. Bu xat xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha idorada rasmiylashtiriladi va kafillik berayotgan shaxs moliyaviy jixatdan yetarlicha ta' minlangan bo'lishi lozim
 - **yoki** Germaniyada bloklangan xisob raqamida yetarli mablag' mavjudligi haqida tasdiqнома
- mavjud bo'lsa: chet tilini bilishingiz haqida hujjat. Masalan til maktabining sertifikati yoki til ma'lumotnomasi
- turar joy** bilan to'liq ta'minlanganlik **haqida tasdiqнома**, masalan mehmonxona bronisi shaklida
- agar mavjud bo'lsa: ish qidirishga tayyorgarligingiz haqida boshqa **hujjatlar**